

Date: 13th March-2025

TIKUVCHILIK YO‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARGA
MILLIY LIBOSLARNI TIKISHNI O‘RGATISH – ZAMON TALABI

Utepova Aliya Altinbekovna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus
texnikum “Tikuvchilik” yo‘nalishi ishlab chiqarish ta’limi ustasi

Annotatsiya: Respublikamizda atlas va adras targ‘ibotini kuchaytirish, o‘zbek milliy liboslariga mehr uyg‘otish va ommalashtirish, zamonaviy kiyinishda o‘zbekona sharm-hayo me‘yorlarini targ‘ib qilish, o‘zbekona kiyinish madaniyatini yuksaltirish maqsadida haftaning har juma kuni “Milliy liboslar kuni” etib belgilandi. “Milliy liboslar kuni” deb e‘lon qilinganidan buyon, milliy liboslarimizni ishlab chiqarishga bo‘lgan talab yanayam oshmoqda, zamon talabiga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada tikuvchilik sohasida tahsil olayotgan o‘quvchilarga milliy kiyim tikishni o‘rgatish dolzarbligi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy libos, atlas, adras, kiyinish, kiyim, ko‘ylak, mashg‘ulot, moda, madaniyat.

Milliy libos – millat qiyofasi, inson ko‘rki, milliy iftixor ifodasidir.

O‘zbek milliy liboslari juda yorqin, chiroyli, qulay bo‘lib, xalqning boy madaniy an‘analari va turmush tarzining bir qismidir. Shaharlarda milliy libosdagi odamlarni topish kamdan-kam uchraydi, bugungi kunda u an‘anaviy bayram tadbirlarida, yosh kelinchaklik davrida kiyiladi, ammo viloyatlarda u hali ham kundalik va dam olish kunlari liboslarining bir qismi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek milliy liboslarini ko‘rib chiqqanimizda, u o‘zining sipoligi, ko‘rkamligi qulayligi va hammabopligi bilan ajralib turadi. Milliy liboslar zamonaviy modaga muvofiq tarzda rivojlanib bormoqda. Etagi yaxlit, yuqori qismi koketkali ko‘ylak milliylik ramzi bo‘lgani uchungina emas, balki, asosan iqlim xususiyatlariga, tevarak-atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to‘g‘ri keladigan ratsional shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saralanib kelgani uchun saqlanib qoldi. Milliy liboslarimiz albatta, atlas va adras singari milliy gazlamalarimizdan tikiladi. *Atlas va adras kabi ko‘zni quvnatadigan, yorqin ranglari, takrorlanmas naqshlari bilan kishiga xush kayfiyat bag‘ishlaydigan milliy liboslarimizda xalqimizning ming asrlik o‘tmishi, qadimiy urf-odat va an‘analari, estetik qarashlari shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlari mujassamdir.*

Milliy liboslar deganda, milliy ko‘ylak, lozim, cho‘pon, nimcha, mursak va do‘ppi kabilar tushuniladi. Bu liboslar o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kiyimlardir. Milliy ko‘ylaklar gavda qismi to‘g‘ri siluetli, koketka chizig‘i bo‘ylab burmali bo‘ladi. Klassik o‘zbekcha ko‘ylak koketkasi asosan ko‘ylakning gavda qismiga ulanadigan chizig‘i bo‘ylab oval shaklida bo‘ladi. Old tomonda koketka yaxlit yoki bo‘rtli bo‘lib, bo‘laklari bir-birining ustiga o‘tib turadi.



Date: 13th March-2025

Yoqasi qirqma, yoqa o‘mizi bo‘ylab yoqa qaytarma qismining shakli har xil bo‘ladi. Ko‘ylak yoqasiz bo‘lishi ham mumkin. Yoqa o‘mizining o‘yig‘i to‘rtburchak, uzaytirilgan, dumaloq shaklda bo‘lishi mumkin.

Hozirgi paytda ayollarning milliy o‘zbekcha ko‘ylagida ma‘lum o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Ko‘ylak gavda qismining silueti, hajmi va uzunligi qisqarmoqda. Koketka, yoqa, yenglarning katta-kichikligi va shakliga ko‘pgina omillar, shu jumladan moda ta‘sir etmoqda. Hozirgi o‘zbekcha ko‘ylakda turli bezaklar, qo‘yma burmalar, aylana burmalar, plisselar ishlatiladi.

Lozim milliy libos (kiyim) turi bo‘lib, u shimdan kengligi, bichimi bo‘yicha farq qiladi. Lozim konstruksiyasi ikkita yaxlit bichilgan simmetrik bo‘lakdan iboratdir. Lozim ko‘ylak ostidan kiyilgani uchun uning beldan bo‘ksagacha bo‘lgan qismi gigiyenik va qulaylik nuqtai-nazaridan ko‘pincha ip gazlamadan bichiladi. Og‘i xishtakli yoki yaxlit bichilgan bo‘ladi.

O‘zbek milliy ko‘ylaklarni ko‘rib chiqqanimizda, u o‘zining sipoligi, ko‘rkamligi qulayligi va hammabopligi bilan ajralib turadi. Milliy ko‘ylaklar zamonaviy modaga muvofiq tarzda rivojlanib bormoqda. Etagi yaxlit, yuqori qismi koketkali ko‘ylak milliylik ramzi bo‘lgani uchungina emas, balki, asosan iqlim xususiyatlariga, tevarak-atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to‘g‘ri keladigan ratsional shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saralanib kelgani uchun saqlanib qoldi.

Xonatlasdan tikilgan liboslarning ustida o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, undagi rapportning kattaligi, rasmlarning aniq-ravshanligi va qat‘iyiligi bu kiyimni ko‘p bo‘laklardan tikishga imkon bermaydi, uning shakli aniq, to‘g‘ri to‘rtburchakka yaqin bo‘lishi kerak.

Milliy ko‘ylaklarda kashta, qo‘yma burma, kant, mag‘iz, biser va boshqa ko‘pgina bezak turlaridan foydalaniladi. Ishlatiladigan materiallari turi, naqshlar yechimi moda yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi, lekin an‘anaviy xonatlas har doim bir xilda keng ishlatiladi. Xonatlas ko‘ylaklarni bichishda uning rasmi to‘g‘ri tushishiga e‘tibor berilishi kerak.

Respublikamizda atlas va adras targ‘ibotini kuchaytirish, o‘zbek milliy liboslariga mehr uyg‘otish va ommalashtirish, zamonaviy kiyinishda o‘zbekona sharm-hayo me‘yorlarini targ‘ib qilish, o‘zbekona kiyinish madaniyatini yuksaltirish maqsadida haftaning har juma kuni “Milliy liboslar kuni” etib belgilandi. “Milliy liboslar kuni” nafaqat tashqi ko‘rinish balki milliy o‘zlikni anglash, o‘zbekona qadriyatlarini hurmat qilish va yosh avlodga ulug‘ ajdodlarimiz merosini yetkazish kabi muhim maqsadlarga ham xizmat qilmoqda. Ushbu tashabbus milliy qadriyatlarimizni yanada targ‘ib qilish, an‘analarimizni asrab -avaylash hamda milliy liboslarimizning kundalik hayotimizda tutgan o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan.

Har juma “Milliy liboslar kuni” deb e‘lon qilinganidan buyon, milliy liboslarimizni ishlab chiqarishga bo‘lgan talab yanayam oshmoqda. Tikuvchilik sohasida tahsil olayotgan o‘quvchilarga milliy kiyim tikishni o‘rgatish zamon talabiga aylanib bormoqda. Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumning “Tikuvchilik” yo‘nalishidagi mutaxassislik fanlari va o‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida



Date: 13th March-2025

milliy liboslar to'g'risidagi mavzular kiritilgan bo'lib, o'quvchilar bu darslarda milliy ko'ylak va lozimning o'lchamini olish, andozasini tayyorlash, bichish va tikishni o'rganishadi. Dars vaqtida ish jarayoni bilan tanishib, qiziqib, o'zlari uchun milliy ko'ylak va lozim tikib ham olishadi. Yaxshi o'rganib, kelajakda buyurtma asosida milliy liboslar tikib, shaxsiy daromadga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q.M., Nigmatova F.U., Gaipova N.S. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va texnologiya asoslari. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, TDPU. 2007-yil.
2. Otamurodov O.B., Kiyim turlari va ularning kelib chiqishi haqida. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil.
3. Kasbiy fanlar metodikasi. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy nashr. 2018-yil aprel 4-son.
4. Magzumov P.T. va boshqalar. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O'qituvchi, 1991-yil.
5. G.K.Hasanbayeva. “Kiyim modelini ishlash va loyihasini tayyorlash”.Toshkent. O'qituvchi. 1990-yil.

